

**TOSHKENT KIMYO-TEXNALOGIYA TADQIQOT INSITUTI  
XUZURIDA ILMY DARAJALARINI BERUVCHI  
DSc16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI OLMALIQ FILIALI**

**JO'RAYEV FARHOD XOLMUROD O'G'LI**

**OLMALIQ KMK AJ NING SANOAT CHIQINDISI TARKIBIDAN NIKEL  
VA KOBALT IONLARINI SORBSION-FOTOMETRIK USULDA  
ANIQLASH**

**11.00.05- Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona  
foydalanish**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarejasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)**

**Jo‘rayev Farhod Xolmurod O‘g‘li**

“Olmaliq KMK” AJ ning sanoat chiqindisi tarkibidan nikel va kobalt ionlarini sorbsion-fotometrik usulda aniqlash .....3

**Jo‘rayev Farhod Xolmurod O‘g‘li**

Определение ионов никеля и кобальта в составе промышленного отхода АО «Алмалыкский ГМК» сорбционно-фотометрическим методом. ....20

**Jo‘rayev Farhod Xolmurod O‘g‘li**

Determination of nickel and cobalt ions in the industrial waste of JSC “Almalyk MMC” by the sorption-photometric method.....39

**E‘lon qilingan ishlar royxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNALOGIYA TADQIQOT INSITUTI  
XUZURIDA ILMIY DARAJALARINI BERUVCHI  
DSc16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI OLMALIQ FILIALI**

**JO'RAYEV FARHOD XOLMUROD O'G'LI**

**OLMALIQ KMK AJ NING SANOAT CHIQINDISI TARKIBIDAN NIKEL  
VA KOBALT IONLARINI SORBSION-FOTOMETRIK USULDA  
ANIQLASH**

**11.00.05- Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona  
foydalanish**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K907 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi ([www.tktiti.uz](http://www.tktiti.uz)) manziliga hamda «ZiyoNet» Axborot–ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy raxbar:**

**Mirzaxmedov Rustamjon Mirxamidovich**  
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxamedov Qobiljon G'ofurovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Fayziyev Jahongir Bahromovich**  
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “\_06\_” \_noyabr\_ soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY p/b Sho'rabozor. Tel: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ootmixt@mail.tu](mailto:ootmixt@mail.tu) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz) )

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (№\_2025/29\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY p/b Sho'rabozor. Tel: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ootmixt@mail.tu](mailto:ootmixt@mail.tu) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz) )

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_16\_” \_oktabr\_ kuni tarqatilgan.  
(2025 yil “\_16\_” \_oktabr\_ dagi \_2025/29\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**Djalilov A.T.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi k.f.d., prof., akademik

**Qiyomov Sh.N.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi t.f.d., k.i.x

**Beknazarov H.S.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., prof.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda so‘ngi yillarda ayrim d guruhga mansub metallarga bo‘lgan ehtiyoj sababli ularni ikkilamchi mahsulotlaridan ajratib olishga qaratilgan texnologiyalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli jahonda pirometallurgik yoki gidrometallurgik usullarni takomillashtirish, bundan tashqari mineral xom ashyolarni va rudalarni qayta ishlashning ekspress usullarini ishlab chiqish, ularning tarkibidagi nikel hamda kobalt metallarini to‘liq ajratib olish, ishlab chiqarish quvvatini keskin oshirish, kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalarni optimallashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda atrof muhitdagi sanoat korxonalar orqali chiqariladigan texnogen chiqindilarini qayta ishlash, turli xil tabiatli tabiiy va sintetik sorbent, organik reagentlar qo‘llash orqali oqava suvlarni metall ionlaridan tozalash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada ishlab chiqarish korhonalarda texnogen chiqindilar tarkibidan toza holda metallarni ajratib olish, ularning sifat va miqdoriy tarkibini hamda jarayon borishining texnologik parametrlarini aniqlash, gidrometallurgiya va pirometallurgiya sanoati oqava texnogen suvlarini ekologik toza metall ionlarini ajratib olishning iqtisodiy samaradorligini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikada kerakli metall ionlarini ekologik xavfsiz va samarali ajratib olish suratini oshirish bilan birga mahalliy xomashyolar, sanoat korxonalari ikkilamchi mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muayyan narijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida «Sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar olish texnologiyalarini o‘zlashtirish va takomillashtirish»<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Bu borada tanlab tasir qiluvchi organik reagentlar, sintetik sorbentlar, ekstrogenlar uchun erituvchilar ishlab chiqish sohasini rivojlantirish va ular asosida yangi ekspress, sezgir, tanlab ta’sir etuvchan usullarni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risi” dagi qarori, 2025 yil 30 yanvardagi PQ-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risi” dagi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 31.05.2023 PF-81-son

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Gidrometallurgiya va pirometallurgiya usullari yordamida immobillangan organik reagentlarni qoʻllash, qimmatbaho elementlarni sanoatda ogʻir metallarni aniqlash usullar oʻrganish boʻyicha chet elda N.V. Gudima metallurgiya sohasida, ayniqsa rangli metallardan mis, kumush, platina kabi metallarni ajratib olish va ularning texnologiyalari boʻyicha muhim ilmiy ishlari, K.F. Rammelberg sianit kislotasini kadmiy, nikel metallariga munosabati va ajratib olish, B.B. Conrad, L. Robert rudalarni qayta ishlash natijasida olingan ammoniy eritmalaridan kobaltning deyarli aralashmagan holda selektiv nikel choʻkmasini olishga qaratilgan, B. Cvetko G. Nikolic, S. Robert nikel-kobalt eritmasida nikel bilan kobalt metallini nisbati 2000:1 dan oshirishga qaratilgan boʻlib Ni (III) va Co (III) ionlari holatida ajratib olish usullari yoritilgan, shu kabi ishlardan Ya.P. Sheyn, A.N. Zelikman, B.G. Korshunov, V.V. Mechev, V.P. Bistrov, A.N. Kasatkin, S.S. Naboychenko, M.I. Bulatov, K. Benuel, Yu.A. Zolotov, respublikamizda esa U.Z. Sharafutdinov, M.A. Kurbanov, K.S. Sanakulov, O.F. Petuxov, B.F. Muxiddinov, A.A. Saidaxmedov, A.P. Vinogradov, I.V. Petryanov, B.N. Laskorin, N.N. Semenov, M.M. Yakubov, A.A. Yusupxodjayev va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlarda sanoat miqyosida chiqindi suvlari tarkibida bir nechta d guruhga mansub bazi ogʻir metall ionlarini ajratib olish usullar ishlab chiqish boʻyicha tavsiyalar berilgan. Hozirda bu usullar orqali olingan natijalar sezgirligi va selektivligi yuqori boʻlgan gidrometallurgiya hamda pirometallurgiya jarayonlari yordamida kon mahsulotlaridan metall yoki uning birikmalarini tarkibini oʻrganish hamda sanoat chiqindilari tarkibidagi qoʻshimcha ionlarning koʻpligi, ekologiyaga salbiy taʼsirlarini oldini olish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya ishi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining, Davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilgan AL-6022012291 - sonli “Oksidlangan mis rudalarini kompleks qayta ishlash texnologiyasini yaratish” mavzusi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoat yarim mahsulotlari (keklari, oqava chiqindi suvlari) tarkibidagi nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-fotometrik tezkor usullarini ishlab chiqish orqali, metallurgiya sohasida atrof muhitga zararli taʼsir etuvchi omillarning tabiatga taʼsirini kamaytirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tanlab eritish jarayoni orqali kon mahsulotlari tarkibidagi nikel (II) va kobalt (II) metall ionlarini toʻliq eritmaga oʻtqazish;

nikel (II) va kobalt (II) ionlari uchun timol koʻki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlarini, tanlangan metall ionlari bilan kompleks xosil qilishni optimal sharoitlarini aniqlash;

timol ko'ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlarini xar hil turdagi sorbentlarga immobillanish darajasini va usulni optimal sharoitlarni aniqlash orqali, metrologik xossalarni yaxshilash;

nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini aniqlashning sezgirligi va selektivligi yuqori bo'lgan sorbsion-fotometrik usulni ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan sorbsion-fotometrik usulni real ob'yetlarga (sanoat keklari va texnologik chiqindi suvlari) qo'llash;

nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini olishning iqtisodiy samaradorligi va texnologik sxemasi ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "Olmaliq KMK" AJ gidrometallurgiya hamda pirometallurgiya jarayonida hosil bo'lgan sanoat keklaridan nikel-kobalt keki (Cd - 2,5-8 %, Co - 3,5-6,5 %, Cu - 3,5-10 %, Ni - 2,5-4,6 %, Zn - 36-45 %, Sb - 0,1-0,15 %), ruh keki ( $Zn_{umumiy}$  - 21 % dan kam, Co - 0,0242 % dan ko'p emas), mis keki (Cu - 30 % dan ko'p emas, Co - 0.0167 % dan ko'p emas) hamda texnologik chiqindi suvlari, PAN-TEA, PAN, KU-2-8 sorbent (xorijiy), timol ko'ki, 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** rux zavodida hosil bo'ladigan nikel-kobalt keki, ruh keki, mis keklari, volfram va molibden boyitish chiqindilari hamda texnologik chiqindi suvlari tarkibidagi nikel (II) va kobalt (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-fotometrik taklif qilish, nikel hamda kobalt metall ionlarini ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida nikel (II) va kobalt (II) metall ionlarini aniqlashning spektrofotometriya, fotometriya, nur qaytarish, atom-absorbsion spektroskopiya, elektrokimyoviy (polyarografiya, ionometriya, potensiometriya) hamda olingan ma'lumotlarni hisoblash uchun statistik usullar, shuningdek element analiz, IQ-spektroskopik, rengen-fluouessent analiz usullari, SEM taxlili usullari bilan bir qatorda kvant-kimyoviy hisoblash natijalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nikel (II) hamda kobalt (II) metall ionlarini tanlab eritish orqali halaqit qiluvchi metallarni cho'ktirish orqali, eritmada nikel (II) va kobalt (II) metall ionlarini konsentratsiyasini oshirish usuli ishlab chiqilgan;

timol ko'ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlar nikel (II) hamda kobalt (II) metall ionlari bilan kompleks hosil bo'lish sharoitlari aniqlangan;

PAN-TEA tolasiga immobillangan timol ko'ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlar orqali nikel (II) va kobalt (II) ionlari kompleksining ( $pH=3-6,2$ ,  $25\pm 5$  °C,  $\lambda_{Ni^{2+}}=560$ ,  $\lambda_{Co^{2+}}=550$ ) optimal tarkiblari aniqlangan;

sorbsion-fotometrik usulni analitik va metrologik parametrlari baxolash orqali, nikel (II) hamda kobalt (II) ionlari miqdorini aniqlash chegarasi, immobilangan eritmaga nisbatan 20 barobar oshishi ilmiy asoslangan;

nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-fotometrik usuli ishlab chiqish orqali kon-metallurgiya korxonalar keklari, oqova texnologik suvlari va tabiiy obyektlari analizida qo'llash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nikel (II) hamda kobalt (II) ionlari tutgan sanoat chiqindi keklari va texnologik suvlari tarkibidagi rux (II), mis (II), kadmiy (II), temir (II) va boshqa halaqit qiluvchi metall ionlarini cho'ktirish orqali nikel (II) ionni konsentratsiyasini 76.9 % gacha, kobalt (II) ionni konsentratsiyasini 91.4 % gacha oshirish usuli ishlab chiqilgan;

taklif qilingan tadqiqot usuli orqali "Olmaliq KMK" AJ rux zavodining "Kadmiy sexi" kimyo laboratoriyasida, hamda atrof-muxit obyektlari, texnologik chiqindilari tarkibidagi nikel (II) va kobalt (II) ionlari aniqlangan;

atrof-muhit obyektlari tarkibidan nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini aniqlash uchun tanlangan organik reagentlari timol ko'ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota immobillash asosida sanoat keklari, shuningdek oqova texnologik suvlari tarkibidan ajratib olishning sorbsion-fotometrik aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini aniqlashning sorbsion-fotometrik usulining iqtisodiy samaradorligi va ajratib olish sxemasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan natijalarni matematik o'rganish atrof-muhit obyektlarining kon-metallurgiya korxonalarining pirometallurgiya va gidrometallurgiya chiqindilari hamda DavST bo'yicha standart namunalar bilan taqqoslash orqali qo'shimchalar, kiritildi-topildi usullar orqali matematik statistika natijalari yordamida qayta ishlanganligi bilan tasdiqlangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ajratish, konsentirlash usuli orqali nikel (II) ionni konsentratsiyasini 76.9 % gacha, kobalt (II) ionni konsentratsiyasini 91.4 % gacha oshirish uchun mo'ljallangan maxsus erituvchilardan foydalanilganligi, shuningdek atrof-muhit obyektlari tarkibidan metall ionlarini miqdorini sezilarli kamayishi aniqlanganligi, ularning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari o'rganilganligi, sorbsion-fotometrik usuli bilan ikkilamchi xomashyosini qayta ishlab imkoniyati ko'rsatilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati rux zavodida qo'llasniladigan pirometallurgiya hamda gidrometallurgiya jarayonida hosil bo'lgan sanoat keklari, chiqindi suvlarini qayta ishlash, immobillangan timol ko'ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlarni metrologik, analitik ko'rsatkichlarni yaxshilash, sanoat chiqindilarini qayta ishlash, resurslardan kompleks foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, nikel (II) hamda kobalt (II) metall ionlarini mikromiqdorlarini aniqlash orqali ekologik va iqtisodiy samarador texnologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilish.** Nikel (II) va kobalt (II) metall ionlarini tanlab eritish orqali halaqit qiluvchi metall ionlarini bartaraf qilish orqali, sorbsion-fotometrik aniqlash usulini ishlab chiqish natijalari asosida:

immobillangan organik reagentlar yordamida nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini ajratish sorbsion-fotometrik usuli "Olmaliq KMK" AJ rux zavodining "Kadmiy sexi" kimyo laboratoriyasida amaliyotga joriy qilingan (Olmaliq kon metallurgiya kanbinati AJ ning 2024 yil 16 dekabrda 12-24/01-01694-son ma'lumotnomasi). Natijada sanoat keki tarkibidan nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini ajratib olish imkonini bergan;

oqava suv tarkibidagi nikel (II) va kobalt (II) ionlarini sorbsion-fotometrik aniqlash usuli “Olmaliq KMK” AJ korxonasi amaliyotga joriy qilingan (Olmaliq kon metallurgiya kanbinati AJ ning 2024 yil 16 dekabrda 12-24/01-01694-son ma’lumotnomasi). Natijada atrof-muhit obyekt tarkibidagi og‘ir metall ionlari miqdorini tezkor aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari 8 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining chop qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlaridan 4 ta respublika va 3 ta xalqaro jurnallarda maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifasi asoslanib berilgan, tadqiqotning ob’ektlari va predmetlari keltirilgan, O‘zbekiston Respublikasi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ilmiy ishlar soni va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.



Dissertatsiyaning “**Nikel (II) va kobalt (II) ionlarini aniqlashning analitik usullari va tabiatdagi ahamiyati**” deb nomlangan birinchi bobida nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini sanoatdagi ahamiyati va uning aniqlash bo‘yicha adabiyotlar sharhi keltirilgan. Nikel (II) hamda kobalt (II) metall ionlarini sanoat miqyosida ishlatilishi, chiqindi tarkibida tabiatga ta’siri, sanoat chiqindisi tarkibidan nikel (II) hamda kobalt (II) ionlarini ishlab chiqarishning qo‘shimcha manbalari keltirib o‘tilgan. Adabiyotlar sharhida metall ionlarini aniqlashning spektroskopik, fotometrik va spektrofotometrik, sorbsion – spektroskopik, ekstraksion-spektrofotometrik, organik reagentlar yordamida spektrafotometrik aniqlash, tanlab eritish jarayonida nikel va kobalt metall ionlarini ionalmashuv jarayonlari, nikel (II) va kobalt (II) ionlar komplekslarini aniqlash bo‘yicha elektrokimyoviy, klassik va boshqa usullari yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqotni o‘tkazishda ishlatilgan asbob-uskunalar, jixozlar, reaktiflarni tayyorlash usuli, tolali sorbentlar va immobilash uchun organik reagent tanlash**” nomli ikkinchi bo‘limida tanlangan ob’ektlardan nikel (II) va kobalt (II) ionlarini suvli eritmalaridan ajratib olish jarayonida samarali ajratish va konsentrlashning zamonaviy tahlil usullari hamda aniqlanilayotgan nikel (II) va kobalt (II) ionlarini timol ko‘ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagent uchun optimal tashuvchi tanlash

bo'yicha barcha ma'lumotlar va ularning qimmatli kimyoviy, analitik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ishlatiladigan asbob-uskunalar, jixozlar, reaktivlar tayyorlash usullarining barcha talablariga javob beradigan zamonaviy apparaturalar, yordamchi qurilmalarning izohi keltirilgan. Ishda taklif qilingan reagentlarning tuzilish formulasi, belgilanishi, kvant kimyoviy xamda matematik statistik qayta ishlash usullari orqali xisoblangan va natijalar 1-2- jadvalarda keltirilgan.



### 1-jadval

Nikel (II) ioni uchun organik reagentning tuzilish formulasi va belgilanishi

No	Timol ko'ki	
1	Tuzulish formulasi	
2	Brutto formulasi	$C_{27}H_{30}O_5S$
3	Gauss Wiew dasturida kvant-kimyoviy formulasi	
4	Sistematik nomenklatura bo'yicha nomlanishi	Timol ko'ki

### 2-jadval

Kobalt (II) ioni uchun organik reagentning tuzilish formulasi va belgilanishi

No	b-nitroza a-naftol 3,6-disulfo kislota	
1	Tuzulish formulasi	
2	Brutto formulasi	$C_{10}H_7NS_2O_8$
3	Gauss Wiew dasturida kvant-kimyoviy formulasi	
4	Sistematik nomenklatura bo'yicha nomlanishi	2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota

Shuningdek bu bobda modda tarkibini aniqlash usullari, optimal tashuvchi tanlash, timol ko'ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentlarining hamda  $Ni^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlarining ishchi eritmasini tayyorlash, olingan natijalar orqali sanoatning yarim mahsuloti (keklari, oqava chiqndi suvlari) nikel-kobalt keki

(Cd - 2,5-8 %, Co – 3,5-6,5 %, Cu - 3,5-10 %, Ni – 2,5-4,6 %, Zn - 36-45 %, Sb - 0,1-0,15 %) tarkibidagi nikel (II), kobalt (II) ionlarini selektiv ajratib olishning sorbsion-fotometrik usulini ishlab chiqish, olingan natijalarni reaksiya mexanizmlari keltirilgan.


Dissertatsiyaning “Timol ko‘ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfokislota reagentlarini tolaga immobillanishi orqali nikel (II) hamda kobalt (II) ionlari bilan kompleks hosil qilishining optimal sharoitlarini o‘rganish” deb nomlangan uchinchi bobida reagentlarning tolaga immobillanishi, timol ko‘ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentni tolali sorbentga immobillanishining vaqtga bog‘liqligi,  $Ni^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlarini timol ko‘ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentlari bilan kompleks hosil qilishni optimal sharoitlari, olingan kompleksning spektral tavsifi, immobillangan reagent va PAN-TEA tolaga timol ko‘ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentlari yordamida  $Ni^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlari bilan hosil qilgan kompleksining IQ spektroskopik, rentgen-fluorescent, skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) taxlil usullari hamda optimal sharoitlari o‘rganish bo‘yicha tadqiqot natijalarini taqdim etilgan.

50 ml li stakanlarga timol ko‘ki organik reagentidan har xil konsentratsiyadagi 20 ml eritmasidan va PAN-TEA sorbentdan 0,200 g dan solib 20 minut davomida sorbsiyalanish jarayoni kuzatildi, paralel tajribalar 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota immobillash uchun ham olib borildi. Buning uchun ham 50 ml stakanlarga 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentidan har xil konsentratsiyadagi 20 ml eritmasidan va PAN-TEA sorbentdan 0,200 g dan solib 20 minut davomida sorbsiyalanishi tajriba yordamida kuzatildi hamda reagentlar nur qaytatishtirish spektrofotometriya o‘lchandi. Olingan natijalar 3-jadval, 1-rasmda keltirilgan.

### 3-jadval

PAN-TEA tolasiga immobillanishning reagent konsentratsiyasiga bog‘liqligi.  
(PAN-TEA,  $25 \pm 5$  °C,  $\lambda = 420_{nm}$ ,  $\lambda = 450_{nm}$ , pH=4-6,  $t_{min}=20$ )

Reagentning konsentratsiyasi M	F (R) 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfo kislota	F (R), Timol ko‘ki
$5 \cdot 10^{-5}$	1,26	0,92
$1,0 \cdot 10^{-4}$	3,38	2,57
$1,5 \cdot 10^{-4}$	5,91	4,65
$2,0 \cdot 10^{-4}$	8,7	6,59
$2,5 \cdot 10^{-4}$	12,3	8,7
$3,0 \cdot 10^{-4}$	12,58	10,78
$3,5 \cdot 10^{-4}$	12,78	11,1
$4,0 \cdot 10^{-4}$	12,82	11,2



**1-rasm.** Timol sulfoftaleyin hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentlarining immobillanishining konsentratsiyasiga bog'liqligi grafigi.  
(PAN-TEA-1,  $25 \pm 5^{\circ}\text{C}$ ,  $\lambda = 420\text{nm}$ ,  $\lambda = 450\text{nm}$ ,  $\text{pH} = 4-6$ ,  $t_{\text{min}} = 20$ )



3-jadval va 1-rasmdan ko'rinib turibdi 0,200 gramm PAN-TEA ga timol sulfoftaleyinni to'liq immobillanishi uchun ioni uchun  $3,0 \cdot 10^{-4}$  M, 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislotaning to'liq immobillanishi uchun  $2,5 \cdot 10^{-4}$  M miqdor yetarli ekan.

Timol ko'ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentini tolali sorbentga immobillanishiga har xil vaqt oralig'ida spektroskopik tavsiflari o'rganilgan. Olingan natijalar 4-jadval, 2-rasmda keltirilgan.

#### 4-jadval

PAN-TEA tolasiga immobillanishining vaqtga bog'liqligi.  
(PAN-TEA,  $25 \pm 5^{\circ}\text{C}$ ,  $\lambda_{\text{R}} = 420$ ,  $\lambda_{\text{R}} = 450$ ,)


No vaqt, min	1	3	5	7	9	11	13	15	19	21	25
2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota	1,2	3,6	5,7	8,0	9,6	11,6	12,2	12,3	12,3	12,5	12,7
Timol sulfoftaleyin	0,7	2,4	4,2	6,1	7,2	8,7	9,7	10,5	11,2	11,2	11,4



**2-rasm.** Immobillanish jarayonida optik zichlikning vaqtga bog'liqlik Sf IV-VIS olingan grafigi A, B ( $l=1$ , PAN-TEA,  $25 \pm 5^{\circ}\text{C}$ ,  $\lambda_{\text{R}} = 620\text{nm}$ )

Demak, timol sulfoftaleyin organik reagenti PAN-TEA tolaga to‘liq immobillanishi uchun 17 minut, 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfokislota organik reagenti PAN-TEA tolaga to‘liq immobillanishi uchun esa 13 minut vaqt ketar ekan. Kompleksni hosil bo‘lishiga vaqtni ta’sirini o‘rganish uchun bir necha eritmalar tayyorlandi, bu eritmalarining har birining tarkibida 0,5 gr dan  $\text{Ni}^{2+}$  va  $\text{Co}^{2+}$  ionlari borligi malum va immobillangan reagentga  $\text{Ni}^{2+}$  va  $\text{Co}^{2+}$  ionlari eritmasini solinganida darhol kompleks hosil bo‘lishini kuzatildi. Bu reagentni  $\lambda=450$  nm da  $\text{Ni}^{2+}$  ioniga moyilligini (sezuvchanligi),  $\lambda=420$  nm da  $\text{Co}^{2+}$  ioniga moyilligini (sezuvchanligi) bildiradi.


**Nikel (II) va kobalt (II) ionlarini organik reagentlar bilan kompleks hosil qilishga muhitning ta’siri.** Optimal pH ni aniqlashda 1,00 dan 12,00 gacha bo‘lgan sorbsiya darajasi vodorod ionlar konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lgan grafigi orqali natijalar eksperimental yo‘li bilan topildi. Uning uchun 12 ta byuksga (hajmi 30 ml) 5,00 g sorbentni tushirib, 10 ml nikel (II) va kobalt (II) ionlarini eritmasidan (konsentratsiyasi 10 mkg/ml), 2-6 ml NaOH, HCl,  $\text{HNO}_3$  eritmalaridan qo‘shib umumiy hajmini 10 ml gacha distillangan suv bilan yetkazib, qopqog‘ini yopib aralashtirildi, xona haroratida ( $20 \pm 5$  °C). “Ko‘k lenta” filtri orqali sorbentni filtrlab olib, filtrantni tarkibidagi elementni miqdorini Specord 50 asbobida timol sulfoftaleyin va 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagentlari orqali aniqlandi.




**3-rasm.**  $\text{Ni}^{2+}$  va  $\text{Co}^{2+}$  ionlarini pH bog‘liqligini Spektrofotometr IV-VIS da olingan grafigi (PAN-TEA-1,  $25 \pm 5$  °C,  $\lambda=420$  nm,  $\lambda=450-520$  nm, pH=4-6,  $t_{\min}=20$ )

Rasmdan xulosa qilib nikel (II) ioni uchun pH=6, kobalt (II) ioni uchun pH=4 oralig‘ida eng maksimal analitik signal va sorbsiyalanish darajasi yeng yuqori bo‘lganligi sababli keyingi ishlarda shu muhitdan foydalandik.

Nikel (II) va kobalt (II) ionlari bilan kompleksining nur qaytarish spektrlaridagi o‘zgarishi mos ravishda ya’ni PAN-TEA tolaga immobillangan timol ko‘ki  $\lambda=450$  bilan kompleksi  $\lambda=560$  nm to‘lqin uzunlik sohada, 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota va kobalt (II) ioni bilan kompleks uchun maksimal analitik signalning qiymatlari mos ravishda 420 nm spektri maksimumi hosil bo‘lishi isbotlandi (4 va 5-rasm). Demak olingan natijalardan  $\text{Ni}^{2+}$  uchun kontrastlik  $\Delta\lambda=110$  nm hamda  $\text{Co}^{2+}$  uchun  $\Delta\lambda=130$  nm qiymatlarda bo‘lishi aniqlandi.




**4-rasm.** Tashuvchi sorbent PAN-TEA, unga immobillangan timol ko'ki va kompleksning nur qaytarish spektrini Kubelka-Munk funksiyasi ifodalanishi.




**5-rasm.** Tashuvchi sorbent PAN-TEA, unga immobillangan 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislotasi va kompleksning nur qaytarish spektrini Kubelka-Munk funksiyasi ifodalanishi

Natijalar shuni ko'rsatdiki timol ko'ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo organik reagentini nikel (II) va kobalt (II) ionlarini bilan kompleksining to'liq uzunligi  $\lambda_R=450-520$  nm maksimal darajada optimal optik zichlikka ega ekanligi aniqlandi.


Olingan natijani tasdiqlash maqsadida nikel (II) va kobalt (II) ionlarini timol ko'ki va 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislotasi organik reagenti bilan hosil qilgan kompleksining tuzilish mexanizmini IQ-spektroskopiyada yordamida o'rganildi (6,7,8,9-rasmlar).




**6-rasm.** Timol ko'ki reagentining IQ spektri



**7-rasm.** Timol ko'ki reagentining nikel (II) ioni kompleksining IQ spektri




**8-rasm.** 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo reagentining IQ spektri




**9-rasm.** 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo reagentining kobalt (II) ioni kompleksining IQ spektri

Kompleksning tuzilishini IQ-spektral o'rganish va kompleks xosil bo'lishining ximizmini o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, timol ko'ki reagenti: O-Me-, -N=O, -SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> guruhining sohasi 454,9 sm<sup>-1</sup>, 578,11 sm<sup>-1</sup>, 613,20 sm<sup>-1</sup>, 850,65 sm<sup>-1</sup> soxalarda kompleks hosil qilish intensivligi yuqoriligi aniqlandi va keyingi ishlarda shu reagentdan foydalanildi.

PAN-TEA tolaga immobilizatsiya qilingan timol ko'ki hamda 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislotasi organik reagenti va uning Ni (II) va Co (II) ionlari bilan kompleksining IQ-spektrlari natijalari 10-11-rasmlarda keltirilgan.




**10-rasm.** Immobilangan PAN-TEA tolaga timoil ko'ki organik reagenti yordamida nikel (II) ionni bilan hosil qilgan kompleksining IQ spektri.



**11-rasm.** Immobilangan PAN-TEA tolaga 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislota organik reagenti yordamida kobalt (II) ionni bilan hosil qilgan kompleksining IQ spektri.

PAN-TEA, tolalarga reagent immobilanishi tolalardagi azot saqlagan birlamchi, ikkilamchi amino guruxlar orqali va reagentdagi sulfoguruxlar bilan ion bo'g' hosil qilishi bilan izohlanadi.


O'rganishlar shunday ma'lumot beradiki aniqlangan spektral chiziqlarning joylashuvi hamda intensivligi standart  $Ni^{2+}$  va  $Co^{2+}$  ionlarining spektrlari bilan solishtirilganda yuqori darajada mos keladi. Ushbu natijalar asosida, real namunadagi kobalt elementi ehtimoliy ravishda oksidlangan shaklda yoki kompleks birikma tarkibida mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa kobalt ionining namunadagi kimyoviy holati, atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va uning potentsial funksional roli haqida muhim ma'lumotlar beradi. Olingan natijalar 12-13-rasmlarda keltirilgan.



**12-pasm.** Tabiiy obyekt namunasi, PAN-TEA sorbentlarga immobillangan organik reagentlar yordamida nikel (II) va kobalt (II) ionlari kompleksining rentgen-fluoresent spektri natijasi

12-13-rasmda keltirilgan real namuna tarkibida rentgen-fluoresent spektrometriya usuli orqali nikel (II) va kobalt (II) ionining mavjudligi ishonchli tarzda aniqlandi. Tahlil davomida nikel (II) ion uchun  $K\alpha$  (taxminan 7.48 keV),  $K\beta$  (taxminan 8.26 keV) hamda kobalt (II) ioniga xos bo'lgan  $K\alpha$  (~6.93 keV),  $K\beta$  (~7.65 keV) chiziqlari yuqori intensivlikda qayd etilgan bo'lib, bu elementning namuna tarkibida borligini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan kvant-kimyoviy hisoblashlar va fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanib, timol ko'kini nikel (II) ion bilan va 2-nitroza 1-naftol 3,6 disulfokislotani kobalt (II) ion bilan hosil qilgan kompleks birikmalarini taxminiy tuzilishini taklif qildik. Kompleks birikmalarni tuzilishi 19-20-rasmlarda keltirilgan



**14-rasm.** PAN-TEA tolasiga immobillamgam timol ko'kini nikel (II) ion bilan hosil qilgan kompleksining taxminiy tuzilishi.

**15-rasm.** PAN-TEA tolasiga immobillamgam 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfokislotani kobalt (II) ion bilan hosil qilgan kompleksining taxminiy tuzilishi.

Dissertatsiyaning “**Real obyektlarda nikel (II) va kobalt (II) ionlarini aniqlash, sanoat va atrof-muhit obyektlarida ularning taqsimlanishini o'rganish, monitoringini olib borishda sorbsion-fotometrik usuldan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi**” nomli to'rtinchi bo'limida suniy aralashmalar tarkibidan metall ionlarini aniqlash, tahlil jarayonlari tabiiy obyektlar va sanoat texnogen keklari hamda oqova chiqindi suvlari tarkibidagi nikel (II) va kobalt (II) ionlarini aniqlash, Olmaliq shahar va unga yaqin hududlardagi kanallarni

suvi bilan sug'orilgan ekin maydonlari atrofida suvlar tarkibidagi og'ir metallar miqdori monitoringi o'tkazish orqali ishlab chiqilgan sorbsion- fotometrik usulni raqobat bardoshligini baholangan.

Birinchi sun'iy aralashmani tayyorlash uchun 100,0 ml li kolbaga 5,0 mkg Ni<sup>2+</sup>, 10 mkg Zn<sup>2+</sup>, 10 mkg Cr<sup>3+</sup> eritmalaridan va 0,5 ml 3,4·10<sup>-4</sup> M timol ko'ki organik eritmasidan va 5,0 ml universal bufer (pH=6) solindi va belgisigacha distillangan suv bilan to'ldirildi. Tayyorlangan aralashmalar timol ko'ki organik reagenti bilan immobillangan tolasidan o'tkazilgan natijalar 5-jadvalda o'rganildi.

**5-jadval**

Nikel (II) ionini sun'iy eritma tarkibidan aniqlash

№	Usul	Kiritildi, mkg/l	Topildi, mkg/l	S <sub>r</sub>
1	Sorbsion – fotometrik usulda aniqlash	5	4,8 ± 0,6	0,08
		10,0	9,4 ± 0,7	0,08
		20,0	19,8 ± 0,8	0,085
		5,00	5,3 ± 0,6	0,007
		10,0	10,6 ± 0,9	0,007
		20,0	19,2 ± 0,15	0,02

Ikkinchi sun'iy aralashmani tayyorlashda 100,0 ml li kolbaga 10,0 mkg Co<sup>2+</sup>, 1 ml konsentrasiyasi 1000 mkg/ml K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup>, Ca<sup>2+</sup>, Mg<sup>2+</sup>, 1 ml konsentrasiyasi 50 mkg/ml Ni<sup>2+</sup>, Al<sup>3+</sup>, Cd<sup>2+</sup>, Mn<sup>2+</sup> ionlaridan, 5,0 ml qoplovchi aralashmadan (F<sup>-</sup> 1:100, CH<sub>3</sub>COO<sup>-</sup> 1:100) 10,0 ml universal buferdan pH=4,0 solindi va belgisigacha distillangan suv quyildi. Tayyorlangan aralashma 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagentiga immobillangan tolasidan o'tkazilgan va nur yutish spektrlari o'lchandi va olingan natijalar 6-jadvalda ko'rsatilgan.

**6-jadval**

Kobalt (II) ionini sun'iy eritma tarkibidan aniqlash

№	Usul	Kiritilgan Co <sup>2+</sup> ionini, mkg/ml	Topilgan Co <sup>2+</sup> ionini, mkg/ml ( $\bar{x} \pm \Delta X$ )	S <sub>r</sub>
1	Sorbsion – fotometrik usulda aniqlash	10,00	9,92±0,11	0,025
2		10,00	10,19±0,10	0,021
3		5,00	5,1±0,10	0,025

Olingan tahlil natijalarida nisbiy standart chetlanish qiymati 0.85 dan oshmadi, bu natijalarni to'g'ri va qayta takrorlanuvchanligidan dalolat beradi hamda ishlab chiqilgan usulni murakkab model aralashmalat tahliliga qo'llash mumkin.

Tahlil jarayonlari tabiiy obyekt bo'lgan vodoprovod, oqava va sanoat texnogen suvlarida qo'llanildi. Sanoat texnogen suv (1 dm<sup>3</sup>) uchun 10 sm<sup>3</sup> standart kobalt (II) va nikel (II) eritmasi (100 mkg/sm<sup>3</sup>) qo'shildi va sorbsiya statik rejimda amalga oshirildi. Sorbsiya 10 davom etgan, polimer og'irligi 0,2 g. Desorbsiya 5 sm<sup>3</sup> 0,5 M HNO<sub>3</sub> o'tkazilib, eritma 100 sm<sup>3</sup> hajmli kolbaga o'tkazilgan va nikel (II) bilan xloroformda ekstraksiya-fotometrik yo'l bilan reaksiya 4 sm<sup>3</sup> alikvot olish orqali aniqlangan. Sanoat chiqindi texnologik suvlaridan tahlil qilish uchun Olmaliq KMK texnogen suvlaridan namuna olindi, muallaq moddalardan filtrlendi va pH qiymati o'lchandi, olingan natijalar 7-8-jadvalda keltirilgan.

**7-jadval**

Real obyektlar tarkibida nikel (II) ionlarini ishlab chiqilgan sorbsion-fotometrik usulda aniqlash natijalari (n=5; 0,95)

No	Kiritildi mg/l	Topildi mg/l		S	S <sub>r</sub>
Olmaliq shaxri texnologik chiqindi suvi					
1	1,00	1,281	1,301±0,02	0,017	0,037
2		1,279			
3		1,317			
4		1,293			
5		1,309			
Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Rux zavodining texnologik chiqindi suvi					
1	1,00	1,456	1,431±0,042	0,032	0,022
2		1,398			
3		1,43			
4		1,401			
5		1,461			

Ni<sup>2+</sup> ionini tabiiy obyekt tuproq tarkibidan aniqlash uchun Olmaliq shaxri texnologik chiqindi suvlari namunalaridan olib foydalanildi.

**8-jadval**

Real obyektlar tarkibida kobalt (II) ionlarini ishlab chiqilgan sorbsion-fotometrik usulda aniqlash natijalari (n=5; 0,95)

No	Kiritildi mg/l	Topildi mg/l		S	S <sub>r</sub>
“Olmaliq shaxri texnologik chiqindi” suvi					
1	1,00	1,310	1,324±0,014	0,011	0,035
2		1,320			
3		1,330			
4		1,340			
5		1,320			
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” Rux zavodining texnologik chiqindi suvi					
1	1,00	1,56	1,62±0,05	0,045	0,028
2		1,63			
3		1,59			
4		1,62			
5		1,68			

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kobalt (II) va nikel (II) ionini tarkibida RECHM dan ko‘p emas ekanligi tajriba usuli orqali o‘rganildi.

Toshkent viloyat boshqarmasi Olmaliq shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasida sanitariya-gigiyena me‘yorlari uzoq vaqt davomida atrof-muhit obyektlarini sifatining nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Natijalar 9-10-jadvallarda aks etgan.

**9-jadval**

Nikel (II) ionini timoil ko'ki reagenti yordamida tabiiy suvlarda qo'shimcha qo'shish orqali aniqlash natijalari (PAN-TEA,  $t = 25 \pm 5$  °C,  $\lambda_R=560$  nm, pH=6)

№	Obyektlar	Ni <sup>2+</sup>			
		DavST usul*		Ishlab chiqilgan usul	
		%	Sr	%	Sr
1	Olmalıq	4,70	0,0256	4,35	0,0271
2	Ohongaron	3,70	0,0128	3,88	0,0125
3	Piskent	1,60	0,0049	1,40	0,0042
4	Bo'ka	0,30	0,0007	0,25	0,0008

**10-jadval**

Kobalt (II) ionini 2-nitroza 1-naftol 3,6-disulfo kislota organik reagenti yordamida tabiiy suvlarda qo'shimcha qo'shish orqali aniqlash natijalari (PAN-TEA,  $t = 25 \pm 5$  °C,  $\lambda_R=550$ nm, pH=4)

№	Obyektlar	Co <sup>2+</sup>			
		DavST usul*		Ishlab chiqilgan usul	
		%	Sr	%	Sr
1	Olmalıq	4,30	0,0048	4,25	0,0049
2	Ohongaron	2,70	0,0032	2,60	0,0030
3	Piskent	1,25	0,0022	1,27	0,0021
4	Bo'ka	0,60	0,0015	0,71	0,0012

9 va 10-jadvallardan ko'rinib ishlab chiqilgan usul tahlil natijalariga ko'ra oqava va tabiiy suvlarni Olmalıq shahar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida talablariga javob beradi va shu metallar mavjud bo'lgan turli obyektlarga nisbatan qo'llanilishi va monitoring o'tkazilishi mumkin.

**11-jadval**

Toshkent viloyati hududlar kesimida nikel (II) va kobalt (II) ionlari bilan ifloslanish monitoring natijalari

№	Toshkent viloyati Olmalıq shahri yaqin hududlari	2024 yil mart		2024 yil iyun		2024 yil dekabr	
		Ni	Co	Ni	Co	Ni	Co
1	Sanoat zonasi	0,08	0,98	0,01	0,032	0,02	0,36
2	Yangiobob MFY	0,2	0,11	0,030	0,007	0,032	0,015
3	Mustaqillik ko'chasi	0,29	0,36	0,004	-	0,22	0,17
4	Ravnaq ko'chasi	0,05	0,017	0,0005	-	0,012	0,001
5	Namuna MFY	0,05	0,01	-	-	0,025	0,009
6	Qiziloy MFY	-	0,05	-	-	0,008	0,0032
7	Oydin xayot ko'chasi	0,14	0,24	0,008	0,072	0,07	0,156

11-jadval ma'lumotlaridan aniq bo'ldiki, o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra Toshkent viloyati hududlaridagi oqava suvlarda nikel (II) va kobalt (II) ionlari bilan ifloslanish darajasi RECHM dan oshib ketmaganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa Olmalıq shaharida «Ammofos-Maksam» AJ, «OKMK» AJ va «JURABEK LABORATORIES» ishlab chiqarish korxonalarining shahar yaqinida joylashganligi urbanizatsiya jarayonining sezilarli darajada tasiri atroflicha muhokama qilindi.

## XULOSA

1. Immobillangan timol ko'ki va 2-nitrozo-1-naftol nikel va kobalt (II) ionlari uchun analitik reagentlar sifatida taklif etildi.

2. Nikel (II) va kobalt (II) ionlarini immobillangan organik reagentlar yordamida aniqlashning optimal sharoitlari  $\text{pH}=4-6$  muhitlar tavsiya qilindi. Organik reagentlarni tolali sorbentga immobillashda OH,  $-\text{SO}_3\text{H}$  guruhlar orqali, metall ionlari bilan kompleks hosil bo'lishida esa  $-\text{OH}$  va  $-\text{NO}_2$  guruxlar ishtirok etishi isbotlandi va IQ-spektroskopik usullari yordamida aniqlandi.

3. Nikel (II) va kobalt (II) ionlarini suvli erimalardan sorbsion konsentrlashning optimal sharoitlari aniqlandi:  $R_1$  uchun  $3,0 - 5,0$ ,  $R_2$   $3,5 - 5,5$  va  $R_3$   $3,0 - 6,0$   $\text{pH}$  ko'rsatkichlarida batamom immobillanish kuzatildi, hamda reagenlarning metall ionlari bilan kompleks hosil bo'lishida vaqtga bog'liqligi mis ioni uchun 15 minut, nikel (II) va kobalt (II) ionlari uchun 11-12 daqiqa ekanligi nur yutish va nur qaytarish spektrlari orqali aniqlandi, optimal bufer eritma sifatida  $\text{pH}=4,0 - 6$  muhitda bo'lgan universal bufer tanlandi.

4. Nikel (II) va kobalt (II) ionlarini immobillangan reagentlar bilan aniqlashning sorbsion-fotometrik usullari ishlab chiqildi, olingan tajriba natijalarini amaliyotda keng qo'llaniladigan kimyoviy, fizik-kimyoviy usullar bilan taqqoslash orqali usulning ishonchliligi isbotlandi.

5. Ishlab chiqilgan usul real ob'ektlardan "Olmaliq KMK" AJ Rux zavodining analitik markaziy laboratoriyasida nikel (II) va kobalt (II) ionlarini texnologik chiqindi suvlari tarkibidan aniqlash sinovidan o'tdi va amaliyotga qo'llashga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc03/7.06. 2024.К/Т.03.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**  
**АЛМАЛЫКСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО ТЕХНИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ  
ИСЛАМА КАРИМОВА**

**ДЖУРАЕВ ФАРХАД ХОЛМУРАДОВИЧ**

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИОНОВ НИКЕЛЯ И КОБАЛЬТА В СОСТАВЕ  
ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТХОДОВ АО «АЛМАЛЫКСКИЙ ГМК» С  
ПРИМЕНЕНИЕМ СОРБЦИОННО-ФОТОМЕТРИЧЕСКОГО МЕТОДА**

**11.00.05-Охрана окружающей среды и рациональное использование  
природных ресурсов**

**Автореферат  
диссертации доктора философии (PhD) по химии**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/K907.**

Диссертация была выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу [www.tktiti.uz](http://www.tktiti.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Мирзахмедов Рустамджон Мирхамидович</b> доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Мухамедов Кабильджан Гафурович</b> доктор технических наук, профессор
	<b>Файзиев Джахонгир Бахрамович</b> кандидат технических наук, старший научный сотрудник
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Термезский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится « 06 » \_ноября\_ 2025 г. в « 09:00 » часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.К/Т.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, ул. Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, e-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz)

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № \_2025/29\_, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, п.о.Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: [ooo\\_tniixt@mail.ru](mailto:ooo_tniixt@mail.ru) [TKTITI@exat.uz](mailto:TKTITI@exat.uz))

Автореферат диссертации разослан «\_16\_» октября 2025 года.

(протокол рассылки № \_2025/29\_ от «\_16\_» октября 2025 г.).

**А.Т. Джалилов**  
Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.х.н., проф., академик

**Ш.Н.Киёмов**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., с.н.с.

**Х.С. Бекназаров**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.т.н., проф.

## **Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В последние годы в мире наблюдается рост спроса на технологии извлечения некоторых металлов группы d из вторичного сырья, что обусловлено возросшей потребностью в этих металлах. В связи с этим в мире уделяется большое внимание совершенствованию пирометаллургических и гидрометаллургических методов, разработке экспресс-методов переработки минерального сырья и руд, полному извлечению содержащихся в них металлов никеля и кобальта, резкому увеличению производственных мощностей, а также оптимизации малоотходных и безотходных технологий.

В мире ведутся многочисленные научные исследования, направленные на переработку техногенных отходов, образующихся в результате деятельности промышленных предприятий, а также на очистку сточных вод от ионов металлов с использованием различных природных и синтетических сорбентов и органических реагентов. В этом направлении особое значение имеет извлечение чистых металлов из состава техногенных отходов промышленных предприятий, определение их качественного и количественного состава, а также технологических параметров протекания процессов, что позволяет обосновать экологическую чистоту и экономическую эффективность извлечения ионов металлов из сточных техногенных вод гидрометаллургической и пирометаллургической промышленности.

В республике наряду с повышением эффективности экологически безопасного извлечения необходимых ионов металлов достигаются определённые результаты по внедрению инновационных технологий по переработке местного сырья и вторичных продуктов промышленных предприятий. В Стратегии развития Республики Узбекистан предусмотрены задачи по «выведению промышленности на качественно новый уровень, углублённой переработке местного сырья, ускорению производства готовой продукции, освоению и совершенствованию технологий получения новых видов продукции». В этом контексте особое значение имеет получение синтетических материалов из местного сырья и их эффективное использование для решения различных экологических проблем, создание новых сорбционно-спектроскопических материалов с улучшенными свойствами, а также разработка новых экспрессных, высокочувствительных и селективных методов анализа.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 31 мая 2023 года № ПФ-81 «О мерах по трансформации системы экологии и охраны окружающей среды и организации деятельности уполномоченного государственного органа», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № ПҚ-16 «О Государственной программе по реализации стратегии “Узбекистан – 2030” в году охраны окружающей среды и “зелёной

экономики»), а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением VII — «Химия, химические технологии и нанотехнологии» развития науки и технологий Республики.

**Степень изученности проблемы.** С использованием гидрометаллургических и пирометаллургических методов, а также применения иммобилизованных органических реагентов для определения тяжёлых металлов и выделения ценных элементов в промышленности за рубежом были проведены значительные научные исследования, Н.В. Гудимы внёс существенный вклад в область металлургии, особенно в разработку технологий выделения цветных металлов, таких как медь, серебро и платина. К.Ф. Раммельсберг изучал взаимодействие циановой кислоты с кадмием и никелем, а также методы их выделения. Б.Б. Конрад, Л. Роберт исследовали процессы селективного осаждения никеля из аммонийных растворов, полученных при переработке руд, практически без примесей кобальта. Б. Цветко, Г. Николич и С. Роберт разработали методы разделения никеля и кобальта в соотношении до 2000:1, описав способы выделения ионов Ni (II) и Co (II). Кроме того, в этой области известны работы Я.П. Шейна, А.Н. Зеликмана, Б.Г. Коршунова, В.В. Мечева, В.П. Бистрова, А.Н. Касаткина, С.С. Набойченко, М.И. Булатова, К. Бенуэля, Ю.А. Золотова. В Республике Узбекистан исследования по данной тематике проводились учёными У.З. Шарафутдиновым, М.А. Курбановым, К.С. Санакуловым, О.Ф. Петуховым, Б.Ф. Мухиддиновым, А.А. Саидахмедовым, А.П. Виноградовым, И.В. Петряновым, Б.Н. Ласкориним, Н.Н. Семёновым, М.М. Якубовым, А.А. Юсупходжаевым и другими.

